

DEVONI HIKMAT'DA DINIY LEKSIKA O'RNI VA ULARNING KELIB CHIQUISH ETIMALOGIYASI

Mirzanazarova Maxliyo

Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishlar, sohalar paydo bo'layotgan bir paytda, hali to'liq o'rganilmagan alohida bir leksik qatlam mavjud bo'lib, uning kelib chiqishi insoniyat yaratilishi kabi murakkab masaladir. B.Koshkovning fikriga ko'ra: "Inson yaratilgan, keyin uning tafakkuri rivojlangan va dastlabki rivojlanish bosqichlarida u qarorlar, qonunlar va davlat boshqaruvini yaratmasdan oldin, dunyodagi har bir jamiyat din orqali tartibga solingan. Odamlar din asosida yashab, ilm-fan, axloq va tarbiyani dindan olgan". Shu bois, dinni xalq ruhining birinchi "san'atkori" deb atash mumkin. Vaqt o'tgani sari din, diniy leksika va uning ahamiyati ortib, u bilan bog'liq asarlar yozildi yoki olimlar o'z asarlarida diniy tushuncha anglatuvchi so'zlarni qo'llay boshladi. Shunday shoirlardan biri Ahmad Yassaviydir. Ahmad Yassaviy turkiy xalqlar ma'naviy, diniy hayotida muhim o'rin tutgan buyuk mutasavvif shoirdir. Uning hayotiga doir ma'lumotlar yetarli bo'lmasada, manbalar bergan ma'lumotlar orqali Ahmad Yassaviy shaxsiyati, dunyoqarashi, qilgan ishlari haqida biroz bo'lsada tasavvur hosil qilamiz.

Ahmad Yassaviyning hikmatlarini o'z ichiga olgan to'plam nomi "Devoni Hikmat"dir. Olimlar fikricha, "Devoni Hikmat" asari Yassaviyga tegishliligi bo'yicha aniq bir xulosaga kelib bo'lmaydi. Bunga misol qilib devonning qo'lyozma nusxalaridagi mazmun va til xususiyatlaridagi farqlarni ko'rsatishadi. Biroq bu farqlar qo'lyozmalarning turli odamlar tomonidan yozilganligini

anglatadi. Kemal Ozergin fikriga ko'ra, bir "guldasta" hisoblangan hikmatlar asosan Ahmad Yassaviyning e'tiqodlari va fikrlarini o'z ichiga olganligi shubhasiz haqiqatdir¹.

"Devoni hikmat" asarida diniy-ma'rifiy mazmunga ega tushunchalardan keng foydalanilib, ular oddiy va tushunarli tarzda ifodalanadi. Shu bois, bu asar diniy leksikaning eng boy va muhim manbayi hisoblanadi. Asar tili qadimgi turkiy adabiy tili asosida bo'lib, unda arab va fors tilidan kirib kelgan diniy terminlar keng qo'llangan. Asar tili sodda va tushunarli bo'lgani uchun o'qilishi oson. "Devoni hikmat" leksikasining asosiy qismini diniy terminlar tashkil qiladi. Masalan: tavba, namoz, ro'za, oyat, hadis, sunnat, gunoh, chohoryorlar va boshqalar. Bu so'zlarning asarda aks etishini ko'rib chiqamiz.

Oyat – "arabcha" Ilohiy belgi, ishora, mo'jiza, dalil. Qur'oni Karimning tugal ma'no anglatuvchi jumlasini oyat deyiladi. Qur'oni Karim suralari 3 oyatdan tortib, 286 oyatgachadir. Qur'oni Karim Zamaxshariyga ko'ra jami 666 ta, boshqa manbalarga ko'ra 6662 ta oyat bor². Oyat so'zining kelib chiqish etimologiyasiga qaraydigan bo'lsak, bu so'z arabcha o'zlashma bo'lib, arab tilidagi **āyah** (آية) so'zidan olingan, belgi, alomat, dalil, mo'jiza kabi ma'nolari bildiradi. Oyat so'zi turkiy tillarga islom dini va Qur'on ta'siri orqali kirib kelgan.

Hadis – arabcha – rivoyat. 1. Muhammad(s.a.v)ning aytgan so'zlari, qilgan ishlari ko'rsatmalari to'g'risidagi rivoyatlar. 2. Islom fiqhida ikkinchi muqaddas

¹ Kemal Özergin, Dini-Tasavvufi Edebiyatımızdan "Divan-ı Hikmet", Nesil. S . .45-46 (İstanbul Haziran Temmuz 1980), s. 8-12.

² Умархўжа М.Э. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. (127-бет).

manba. Arab tilidagi **ḥadīth** (حديث) so‘zi **yangi narsa, xabar, rivoyat ma’nolarini** bildiradi. “Devoni Hikmat” da ushbu so‘z quyidagi parchada keltiriladi:

Haq rasulning inoyati bo’ldi mango,

Oyat-hadis so’zin bayon qildim sango,

Tobe’ bo’lub, oytgonlarin qilg’il anga,

Tobe’ bo’lub, diydor ko’rung, do’stlarimo³.

Namoz – forscha egri yo‘ldan yurgan insonlarni to‘g‘ri yo‘lga kimgazish. Islom dinining ikkinchi rukni, bajarilishi farz hisoblangan ibodat shakli. Shariyatda namoz takbir ila boshlanib, salom berish bilan tugaydigan, Qur’on oyatlarining belgilangan duolarini o‘qish, tik turish, tili, sajda, tiz chekish, o‘tirish kabi harakatlar bilan qo‘shib ado etilgan⁴. Bu so‘z o‘zbek tiliga fors-tojik tilidagi namāz so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, ma’nosi fors tilida **namāz** — ibodat qilish, Allohga sajda qilib ibodat qilish ma’nosini bildiradi. Arab tilida bu so‘z **salot (ṣalāt)** shaklida qo‘llanadi⁵. Tilshunoslar fikriga ko‘ra bu so‘z eroniy tillardagi “**nam-** / **nem-**” ildizidan kelib chiqqan **egilish, ta’zim qilish, hurmat bajo keltirish** kabi tushunchalarni anglatadi.

³ © Nodirxon Hasan “Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). Ahmad Yassaviy”.- Toshkent: "Movarounnahr" nashryoti 2004.(36-bet)

⁴ Умархўжа М.Э. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-маъбаа ижодий уйи, 2016.(119-bet)

Ro'za – so'zining o'zagi fors-tojik tilidagi **rūz** “**kun**” so'zidan kelib chiqqan. **Ro'za (rūza)** arab tilidagi **ṣawm** (صوم) yoki **ṣiyām** (صيام) tushunchasining forsiy nomi hisoblanadi. Arab tilida bu so'z **o'zini tiyish, biror narsadan saqlanish** degan ma'noni anglatadi. Умархўжаев М.Э. “Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат” da ro'za so'ziga bunday ta'rif berib o'tilgan “ ro'za yilda bir oy hijriy qamariy kalendarning ramazon oyi davomida kunduz kunlari yeyish ichishdan,yomon ishlar qilishdan tiyilish.Ro'za Hijratning ikkinchi yili farz bo'lgan.Bu ibodat kasal yo safarda bo'lgan kishilardan boshqa kunda tutib berish sharti bilan soqit qilinadi. Sababsiz ro'zani buzgan kishi boshqa kuni tutib berish bilan birgalikda uning jazosi sifatida ikki oy paydar-pay ro'za tutishi lozim bo'ladi. Shuningdek, ro'za ramazondan boshqa oylarda ham tutilishi mumkin. Masalan, nafl ro'za yoki qasamni buzishdagi kafforat uchun ham ro'za tutiladi”.⁶

Oltmish uchga yoshim yetti,o'tdim g'ofil,

Haq amrini mahkam tutmay o'zim johil,

Ro'za namoz qazo qilib bo'ldim kohil,

Yomon izlab yaxshilardan kechdim mano⁷

Gunoh – 1.Diniy tasavvurlarga ko'ra, yovuz kuchlar va yovuz niyat tasirida insonning ilohiy ko'rsatmalarni bajarmasligi yoki buzib, chala

⁶Умархўжа М.Э. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016.(139-bet).

⁷ И. Хаққулов “ Аҳмад Яссавий Ҳикматлар “-Т.- Адабиёт ва санъат нашрети 1990.(44-bet)

bajarishi, din va diniy marosimlarni buzishga qaratilgan harakat. 2.Jinoyat, ayb. Shariat qoidalariga yoki diniy aqidalariga xilof amallar.

Ayo mo'min, kirgil yo'lg'a murod istab,

Jon bahridin o'tgin Rahim Rahmon uchun.

Gunohingga pushaymon bo'l sidqing birla,

Tavba qilg'il rahm etguvchi G'ufiron uchun.⁸

“Savob” —arab tilida “ilohiy mukofot”, o'zbek tilida “yaxshi ish”, “ezgu amal” sifatida ishlatiladi. Ushbu so'z arab tilidagi thawab so'zidan olingan. Ushbu ildizning qaytmoq, mukofot qaytishi ma'nolari bor. Shundan kelib chiqib savob – qilingan yaxshi amalning mukofoti (qaytimi) deyiladi.

Tajrid- Tasavvufda hamma narsadan holi bo'lib, Alloh taoloning zikri, ibodati uchun ajrab chiqish degan ma'noni anglatadi.

Shariatda **tajriddur** dunyosini tark etmak,

Tark etmayin dunyoni Haqni suydin demasin.

Tariqatda tan jonin tark etmagi **tajriddur**,

Tark etmayin tan jonin **tajrid** bo'ldim demasin.

⁸© Nodirxon Hasan “Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). Ahmad Yassaviy”.- Toshkent: "Movarounnahr" nashryoti 2004.(4-bet).



Yassaviy asarining yana bir muhim jihati unda tasavvufiy terminlardan keng o'rinlarda foydalanilganidir. Ishq, orif, zohid, obid kabi tasavvufiy terminlarning asarda aks etishi asar qiymatini yanada oshiradi.

Orif - xabardor bilimdon. Tasavvuf adabiyotida Allohni tanigan, ma'rifat sohibi bo'lmish, tom ma'nodagi haqshunos inson⁹. O'zbek tiliga bu so'z arab tilidan kirib kelgan hisoblanadi. O'zbek tilida orif arab tilida **arif** shaklida aytiladi, bu so'zning etimologiyasi arabcha (**arafa**) — “bilmoq”, “tanimoq”, “anglamoq” fe'lidan kelib chiqqan. Keyinchalik bu so'z harakat egasi bo'lib **orif** “biluvchi”, “anglovchi”, “tanigan kishi” ma'noda kelgan.

Muhabbatsiz haloyiqdan har kim qochsa,

Oriflarni suhbatida javlon qilur.

O'rta b, kuyib ishq yo'lida yoshni sochsa,

Subhon egam arsh ustida mehmon qilur.

Zohid - Xudoning marxamatiga Musharraf bo'lish niyatida tarki dunyo qilgan odam. Dunyo va uning matolariga xirs qo'ymagan inson¹⁰. Arabcha zāhid kelib chiqishi zuhida / zahida so'zlariga boradi. Bu so'zlar “voz kechmoq”, “dunyoga qiziqmaslik” ma'nosida ishlatilga. Hozirgi kunda bizning tilimizda ham bu so'z “dunyo lazzatlaridan voz kechib, ibodat va taqvoga berilgan kishi”

⁹ Умархўжа М.Э. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016.

¹⁰ Умархўжа М.Э. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016.

Zohid bo'lma, obid bo'lma oshiq bo'lg'il,

Mehnat tortib ishq yo'lida sodiq bo'lg'il.

Nafsnı tepib dargohig'a loyiq bo'lgil,

Ishqsizlarnı ham joni yo'q, imoni yo'q¹¹.

Tilimizda leksemalar o'rtasida sinonimlik va antonimlik hodisalari ko'p uchraydi. Ikki so'z yoki termin leksik ma'nosining o'zaro qarama-qarshi ifodaga ega bo'lishi ekstralingvistik hodisa hisoblanmish antonomiyani yuzaga chiqaradi. Sinonimlar ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan birdan ortiq so'zlardir. Lekin bir sinonimlik qatordagi so'z yo ekspressivlik bo'yog'iga ko'ra yo ma'no nozikligiga ko'ra o'zaro farq qiladi. Faqat dubletlar tarkibidagi so'zlar ma'nosi ayni bir xil bo'ladi. Lekin dubletlar tilda uzoq yashamaydi: yo biri qo'llanmay ketadi, yo biri bir jihati bilan o'zgarib ketadi. Ya'ni birorta ham uzual ma'no to'laligi bilan ikkinch bir so'zda takrorlanmaydi¹². O'zaro sinonim (dublet) va antonim bo'la oladigan diniy leksemalar ham mavjud. Bularga Shayton, iblis, jin, ajina kabi so'zlarning o'zaro sinonimlik hosil qilib bir ma'noda – Odamlarni din yo'lidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh ma'nosida qo'llash mumkin. Yoki Janoza, a'za, motam – Odamning o'limi yoki biror umummilliy falokat munosabati bilan a'za tutish. Islomda dafn etish marosimi ma'nolarida qo'llash mumkin.

Diniy leksemalarda antonimlik

¹¹ И. Хаққулов “Аҳмад Яссавий Ҳикматлар” -Т.- Адабиёт ва санъат нашрети 1990.

¹² Terminalogiyada leksik-semantik hodisalar[Matn]:monografiya/ I.Ermatov. – Toshkent: “BOOK TRADE 2022” – 2023. (54-56-betlar).

JANNAT	JAHANNAM
FARISHTA	SHAYTON
ITOAT	SHAK
SAVOB	GUNOH

Bu soʻzlarni kelib chiqish etimologiyasiga nazar tashlasak, ularning tarixi uzoq oʻtmishga borib taqaladi.

Jahannam soʻzi aslida ibroniycha “Ge-Hinnom” — yaʼni Quddus yaqinidagi Hinnom vodiysi iborasidan kelib chiqqan. Tarixda bu vodiysi laʼnatli joy sifatida tanilgan, shuning uchun vaqt oʻtishi bilan ibroniycha va suryoniycha orqali arabchaga “jahannam” shaklida kirib, azob va qiynoqlar joyi sifatida maʼnoga ega boʻlgan. Lekin baʼzi manbalarda bu soʻz arabchada “chuqur, quduq” degan maʼnoni ham bildiradi. Soʻzning tarixiy izini kuzatsak, u ibroniycha Ge-Hinnom dan oromiycha-suryoniycha Gehinnām orqali arabcha oʻtgan. Hinnom vodiysi eramizdan avvalgi VII asrda Shoh Yoziyax tomonidan ibodatxonalar buzilgach, laʼnatlangan joy sifatida eʼtirof etilgan va yahudiy-xristian adabiyotlarida azob-u qiynoqlar maskani sifatida tasvirlangan¹³.

Farishta oʻzbek tiliga fors-tojik tilidan kirgan boʻlib, fors tilida “fereshte\farista shaklida ishlatiladi. Fors tilidagi fereshte soʻzi qadimgi eroniy tillarga borib taqaladi. Baʼzi manbalarda u Avesto tilidagi fravasi (faravahar) soʻzi bilan ham bogʻlanadi va himoya qiluvchi ruh, ilohiy mavjudot maʼnolarini bildirgan. Vaqt oʻtib bu tushuncha islom dini taʼsirida oʻzgarishlarga uchrab

¹³ <https://t.me/azizbekrustam/34>.

farishta – ya’ni malak (farishta) ma’nosida ishlatila boshlangan. Malak bu so’zning arabcha muqobili hisoblanadi.

Nomoz - bilamizki, o'zbek tili religionimlari orasida namoz so'zi faol iste'molda hisoblanadi. Bu so'zning kelib chiqishi turkiy tillarga taqalmasa-da, madaniy kontakt natijasida o'zlashgan deb qaraladi. Ko'pchilik namoz arabcha deb o'ylashadi, lekin bu so'zni semit tillariga aloqasi yo'q. Namoz so'zi aslida sanskritcha "namah" (egilmoq, salom bermoq) so'zining o'zgargan shaklidir. Ayni so'zga sanskritcha "te"(senga) so'zi qo'shilib, hind-eron guruhida salomlashish manosida ham qo'llaniladi. Qadimgi manbalarda, xususan, " Oltin yoruğ" dostonida ham ta'zim ma'nosidagi namo so'zini ko'rishimiz mumkin. Ushbu so'zning turkiycha varianti sifatida Mahmud Qoshgariy yukunmak, yukunch so'zlarini beradi¹⁴.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” asarining katta qismini diniy leksikani tashkil etadi. Bu so’zlar o‘z etimologiyasi va lingvistik xususiyatiga egadir. Tilimizdagi ba’zi diniy leksemalar diniy tushuncha anglatibgina qolmay, leksik-semantik munosabatlarga ham kirishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ermatov I. “Terminalogiyada leksik-semantik hodisalar” [Matn]: monografiya/ – Toshkent: “BOOK TRADE 2022” – 2023. (105-bet).

¹⁴ <https://t.me/azizbekrustam/17>.



2. © Nodirxon Hasan “Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). Ahmad Yassaviy”. - Toshkent: "Movarounnahr" nashryoti 2004. (83-bet).
3. Умархўжа М.Э. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016.(127-bet).
4. Хаққулов И “Аҳмад Яссавий Ҳикматлар”-Т.- Адабиёт ва санъат нашрети 1990.
5. Özergin Kemal , Dini-Tasavvufi Edebiyatımızdan "Divan-ı Hikmet", Nesil. S . .45-46 (İstanbul Haziran Temmuz 1980), s. 8-12.
6. <https://t.me/azizbekrustam/17>.